



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BAMKLARNING ZAMONAVIY XIZMATLARI VA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

SamISI, Bank ishi kafedrası asisstenti ,

Tursunov Faridun

SamISI, Bank ishi va auditi 4-bosqich talabasi,

Yadgarov Avaz

SamISI, Bank ishi va auditi 4-bosqich talabasi,

Abdujalilov Shexroz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistondagi banklarning zamonaviy bank xizmatlarnini takomillashtirish yo'llari va raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning amalga oshiradigan chora tadbirlari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *Raqamli bank, zamonaviy bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari, investitsion xizmatlar, bank texnologiyalari*

Annotatation: *This article examines ways to improve modern banking services of banks in Uzbekistan and measures that banks can take in the digital economy.*

Key words: *Digital bank, modern banking services, remote banking services, investment services, banking technology*

KIRISH

Hozirgi davrdagi tezkor va shiddatli rivojlanish hamda iqtisodiyotdagi tub

o'zgarishlar davrida raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha ilg'or

raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizga kirib kelmoqda. Shu sababli aholining

turmush tarzini yanada yaxshilash va osonlashtirish, kompyuterlashtirish va

mamlakatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida Respublikamiz

rahbariyati bir qancha qarorlarni qabul qildi va "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida mijozlarga taqdim etiladigan elektron

bank xizmatlarini ko'rsatish borasida tizimli ishlar tashkil etilmoqda. Xususan,



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasito'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmonida "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilma yaratish va banklar faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklarning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lmagan funktsiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor berilmoqda.

Bank faoliyatini ilmiy-texnik taraqqiyotning so'nggi yutuqlarini jadal tatbiq

etmasdan modernizatsiya qilish mumkin emas. Jahon amaliyotidan ko'rinib turibdiki, ilmiy-texnik taraqqiyot va yangi axborot texnologiya (IT)larining jadal o'sishi bankning jozibadorligini umumiy baholashga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Texnologik jarayonning rivojlanishi nafaqat xujjatlarni rasmiylashtirish va kassa

operatsiyalarini o'tkazish tezligini oshirishga, balki mijozlar doirasini kengaytirishga ham imkon beradi. ITlar bank va ularning aloqalarini rivojlantirib, faoliyatni tezkor ravishda qayta loyihalashtirishga imkon beradi. O'z o'rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlari ITlarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin. Boshqacha aytganda, IT sohasi rivojlanib, tobora o'sib borayotgan global raqobat davrida banklarning barqarorligini ta'minlash uchun katta hissa qo'shmoqda. Umuman olganda, IT-texnologiyalari, ulardan bank sohasida foydalanish, dasturiy ta'minotlar va aloqa vositalari kabilar kabi elementlar "bank texnologiyalari"ni tashkil etadi. Iqtisodiy adabiyot va ilmiy tadqiqotlarda "bank texnologiyalari"ga turli qarash hamda tushuntirishlar berilgan.

Masalan:

M.V. Dubininning fikricha, bank texnologiyalari – bu banklarda ishlatiladigan

turli xil telekommunikatsiyalar, axborot texnologiyalari, kompyuter tarmoqlari,

dasturiy mahsulotlar, ichki protseduralar, risklarni boshqarish modellari va boshqalar. "Bank texnologiyasi" atamasi banklarga o'z mijozlariga xavfsiz, ishonchli va arzon narxlarda yaxshiroq xizmatlarni taklif qilishi hamda bank xizmatlari bozorida raqobatbardosh ustunlikka erishishi uchun zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi. Bank texnologiyasi, shuningdek, demografik, psixografik va tranzaksion ma'lumotlar



kabi mijozlar tafsilotlarini saralash orqali mijozlar xatti-harakatlari modellarini ochishda zamonaviy kompyuter algoritmlaridan foydalanish faoliyatini o'z ichiga oladi.

Hozirgi vaqtga kelib raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning zamonaviy xizmatlari va investitsion faoliyatini takomillashtirish bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

Tahlil va natijalar

Raqamli xizmatlarning rivoji- Mijozlar uchun qulaylik yaratish, to'lovlarni tez va oson amalga oshirish imkoniyatini berish. Mijozlar uchun shaxsiy va korporativ kreditlarni onlayn tarzda olish imkoniyatlarini yaratish va mijozlarga moliyaviy tahlillar va maslahatlar berish, investitsiya imkoniyatlarini ko'rsatish.

Innovatsion texnologiyalar- Moliyaviy operatsiyalarni xavfsiz va tez amalga oshirish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanish va mijozlar ehtiyojlarini aniqlash va xizmatlarni shaxsiylashtirish, shuningdek, firibgarlikni oldini olishda yordam berish.

Investitsion faoliyatni takomillashtirish-Investitsiya portfellarini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytirish, shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi bozorlar va imkoniyatlarni izlash, masalan, FinTech startaplariga investitsiyalar kiritish.

Xavfsizlik va muhofaza- ma'lumotlarini himoya qilish va xavfsizlik choralarini kuchaytirish. Regulyatsiya Raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlari uchun yangi regulyatsiyalarni ishlab chiqish kabilardir.

Shu bilan bir qatorda bu jihatlarni kuchaytirish va amaliyotga tatbiq etish juda muhim hisoblanadi, bu jihatlarni rivojlantirish uchun uning bir qator yo'llari mavjud. Quyida ba'zi asosiy yo'nalishlar keltirilgan:

1. Raqamli platformalarni rivojlantirish- Mobil va veb-ilovalar: Mijozlarga qulaylik yaratish uchun mobil ilovalar va onlayn banking xizmatlarini takomillashtirish va foydalanuvchilarga intuitiv va qulay interfeyslar taqdim etish.

2. Avtomatlashtirilgan xizmatlar- Robo-advisorlar: Mijozlarga avtomatik investitsiya tavsiyalari beruvchi tizimlar orqali xizmat ko'rsatish va Chatbotlar va sun'iy intellekt joriy etish.

3. Big Data va analitika- Ma'lumot tahlili: Mijozlar xulq-atvorini va bozor tendensiyalarini tahlil qilish orqali shaxsiylashtirilgan xizmatlar taklif qilish bilan bir qatorda moliyaviy bozorlarni va mijozlar ehtiyojlarini oldindan bilish uchun analitik vositalarni qo'llash.


4. Xavfsizlikni oshirish- Kiberxavfsizlik yechimlari: Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash va firibgarliklarni oldini olish uchun zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish va mijozlarga xizmat ko'rsatishda xavfsizlikni oshirish uchun biometrik texnologiyalarni qo'llash.

Hozirda raqamlashtirish moliyaviy texnologiyalarda katta o'zgarishlarga olib keldi. Internet va onlayn texnologiyalarning rivojlanishi bank xizmatini yangi pog'onaga chiqqanini ko'rsatadi. Bank va mijoz o'rtasida yanada yaqinroq aloqa o'rnatildi va bu aloqa sutkaning 24 soat davomida ishlashini ta'minlaydi. Natijada internet – banking, mobil banking, SMS – banking xizmat turlari o'z mijozlarini topdi. Bank tizimini raqamlashtirishning ijobiy tomonlaridan hisob jarayonlarini

avtomatlashtirish, mijozlarni onlayn ko'paytirish, xatolarni tezkor to'g'irlash, yangi bank xizmatlarini taklif etish, ish samaradorligini o'sishi shular jumlasidandir. O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlari turli tijorat banklar va to'lov tizimlari tomonidan taqdim etilmoqda. 2023 yil 1 oktyabr holatiga O'zbekistonda 31 ta bank mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatishgan. Mamlakatimiz bank sektori jami 39335648 mijozga, shundan 38024230 nafar jismoniy shaxslarga, 1311418 nafar yuridik shaxslarga onlayn xizmatlarini taqdim qilishgan. Yana bir tizim masofaviy bank xizmatlarida salmoqli o'rin egallamoqda, bulardan biri QR-online tizimi orqali tranzaksiyalarni amalga oshirishdir va buni biz quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin.

QR-online tizimida amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va hajmi. 1-chizma





XULOSA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar zamonaviy xizmatlar va investitsion faoliyatni takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Bu, o'z navbatida, raqobatbardoshligini oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Banklar raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy xizmatlarini takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llashga tayyor. Zamonaviy banklar, raqamli transformatsiya orqali o'z xizmatlarini yanada samarali va qulay qilishni maqsad qilmoqdax Bu jarayon, banklarning mijozlarga yanada sifatli xizmatlar ko'rsatishiga, raqobatbardoshligini oshirishiga va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Zamonaviy bank xizmatlari raqamli transformatsiya, shaxsiylashtirish va xavfsizlikni ta'minlash orqali iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Banklar yangi investitsion xizmatlar orqali mijozlarga yanada keng qamrovli va qulay xizmatlarni taklif etishmoqda. Bu xizmatlar zamonaviy moliya bozorlaridagi o'zgarishlarga mos keladi va investitsiya jarayonini soddalashtiradi. Mijozlar uchun eng maqbul yechimlarni topish maqsadida banklar innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llamoqda. Bir so'z bilan aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'zgarishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi va butun dunyo bo'ylab faol tarqalishiga javob hisoblanadi hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. Ковалев, М.М. Цифровая экономика – шанс для Беларуси / М.М. Ковалев, Г.Г. Головенчик. – Минск: Изд. центр БГУ, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992 sonli Farmoni, 12.05.2020 yil.
4. Назаренко, В. А., Бочкова, Е. В. Интернет-банкинг за рубежом: история и современное состояние / В.А. Назаренко, Е.В. Бочкова // Экономика,



управление, финансы: материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Пермь, апрель 2018г.). - Пермь: Зебра, 2018. - С. 84

5.J. Maudos, J. M. Pastor, F. Pérez, and J. Quesada, "Cost and profit efficiency in European banks," *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 2002, doi: 10.1016/S1042-4431(01)00051-8.

6. O.M.Abdullayev, A.A.Fattaxov, K.Axmedov "Raqamli iqtisodiyot", Toshkent, 2018.

7. R.H.Ayupov "Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar", O'quv qo'llanma, 2020